



**MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI**



**A.AVLONIY NOMIDAGI
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**



**JIZZAX VILOYATI
PEDAGOGIKA MARKAZI**

**“INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA FAN, TA'LIM VA ISHLAB
CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYASI
(2024-YIL, 15-IYUN)**

MATERIALLARI

**“ENSURING THE INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND
PRODUCTION BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES:
PROBLEMS AND SOLUTIONS”**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
ONLINE CONFERENCE
(JUNE 15, 2024 Y)**

MATERIALS



KASBIY KOMPETENTLIKNI ANIQLASH TAMOYILLARI

*Mardankulov Jasur Amirddinovich,
Jizzax viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi,
p.f.f.d., (PhD) dotsent.*

Annotatsiya. Ta'lim muassasalari tinglovchilarning kasbiy jihatdan ahamiyatli hisoblangan kompetensiyalarni aniqlash, kasbiy kompetentlikni shakllantirish hamda o'z-o'zini rivojlantirishi, bilimlarni to'plash, qayta ishlash va uzatish, mantiqiy ketma-ketlikda yaratish va erishgan yutuqlarini ko'rsta olish kompetensiyasini aniqlash hamda o'rganish kabilarni o'zida mujassam etadi.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, tayanch kompetensiya, IT-industriya, axborot kompetentligi, multimedia, vebinar texnologiyalar, portfolio, ekspertiza, ishlar portfoliosi

ПРИНЦИПЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

*Mardankulov Jasur Amirddinovich,
Джизакский областной национальный центр подготовки педагогов по
новым методикам, п.ф.ф.д., (Phd) доцент.*

Аннотация. Образовательные учреждения включают в себя определение компетенций обучающихся, считающихся профессионально важными, формирование профессиональной компетентности и саморазвития, умения собирать, обрабатывать и передавать знания, создавать их в логической последовательности и демонстрировать свои достижения, учиться.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, базовая компетентность, ИТ-индустрия, информационная компетентность, мультимедиа, вебинарные технологии, портфолио, экспертиза, портфолио работ.

PRINCIPLES OF DETERMINING PROFESSIONAL COMPETENCE

*Mardankulov Jasur Amirddinovich,
Jizzakh region national center for training pedagogues in new methods, p.f.f.d.,
(PhD) dotsent.*

Annotation. Educational institutions include the determination of the competencies of the students considered professionally important, the formation of professional competence and self-development, the ability to collect, process and transfer knowledge, create it in a logical sequence and demonstrate their achievements, and learn.

Key words: professional competence, basic competence, IT industry, information competence, multimedia, webinar technologies, portfolio, expertise, work portfolio

Respublikamizda ta'limni islohot qilish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlar o'ziga xos rivojlanish yo'lining tanlanishi, shuningdek, butun dunyodagi qo'llanilayotgan ta'lim standartlariga muvofiq mos keluvchi uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitni vujudga keltirdi. Ta'lim tizimida olib

borilayotgan hamda aniq maqsadlarga yo'naltirilgan davlat siyosati ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Shu sababdan bajarilishi lozim bo'lgan asosiy ishlardan biri kelajak kasblari uchun raqobatbardosh kadrlarni shakllantirish, har tomonlama etuk, mustaqil dunyoqarashiga ega va qaror qabul qila oladigan, ijodiy fikrlash qobiliyati shakllangan kadrlarni tarbiyalash vazifalari qo'yib berilgan.

Dunyo miqyosida tobora rivojlanib borayotgan axborotlar asrida ko'plab oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak informatika, axborot kommunikasiya texnologiyalari sohasidagi o'qituvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning motivasion mexanizmlari va ularni modellashtirish tizimlari, pedagogik innovasiyalarga nisbatan qabul qiluvchanlikni shakllantirish, tyutoring va mentoring faoliyatlarini tadqiq qilish bo'yicha keng ko'lamda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Respublikamiz ta'lim tizimida, jumladan, AQSh pedagogik ta'limni akkreditatsiyalash Milliy Kengashi (National Council for the Accreditation of Teacher Education)da pedagogik kadrlarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish mezonlari, kasbiy pedagogik standartlar Milliy komiteti (National Board for Professional Teaching Standards)da malaka talablari, Ta'lim milliy instituti (National Institute of Education)da nafaqat bo'lajak informatika o'qituvchilari, balki pedagogik kadrlarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha ham qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Oliy ta'lim tashkilotlari tinglovchilarning shaxsiy ish rejaları orqali ularning har tomonlama qiziqishlarining egallayotgan kasbiga yo'nalganligi, mustaqil fikrlashi, ijod qilishi, faolligi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bo'lajak mutaxassis uchun oliy ta'lim tashkilotida ta'lim olish jarayoni – kadr sifatida shakllanishini muvaffaqiyatli amalga oshirishda kasbiy jihatdan ahamiyatli hisoblangan kompetensiyalarni rivojlantirish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish hamda o'z-o'zini takomillashtirishi uchun eng qulay davr hisoblanadi. Talaba ushbu jarayonda bilimlarni to'plash, qayta ishlash va uzatish, mantiqiy ketma-ketlikda yaratish va kelajakda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ularni samarali qo'llay olishni o'rganish kabilarni o'zida mujassam etadi. Bo'lajak mutaxassisning butun hayoti davrida davom etadigan va ta'limning barcha bosqichlaridan iborat bo'ladigan uzluksiz ta'lim shaxsning butun umri davomida intellektual rivojlanishining negizi sifatida uning hayot tarzini belgilovchi fenomen hisoblanadi. Bu holda, ta'limning uzluksizligi "uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida ta'lim jarayonining tugallanganligi"ni bildiradi.

Bunday muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo'li ta'lim tizimiga yangicha, ya'ni, kompetentli yondashuvni joriy etishdir. Shu bilan birga, ta'kidlash kerakki, kompetentlikni pedagogik fenomen sifatida talqin qilish qiyin, chunki, kompetentlik kategoriyasi pedagogikaga yangi kirib kelgan bo'lib, u fanda yetarli darajada chuqur anglab etilgan va o'zining mustahkam o'rniga ega. Shu bilan birga, ta'limda kompetentlikka yo'naltirilgan yondashuvlarning dolzarbligi tufayli "kompetentlik", "kompetensiya", "tayanch kompetensiyalar" tushunchalari ta'lim soxasining yangi bosqichlariga doir masalalarni hal etishda tobora ko'proq ishlatilmoqda va keng tarqalib bormoqda. Pedagogik hamjamiyatda kompetentlik va kompetensiyalar, ulardan qaysi birlari tayanch (universal) hisoblanishi, ularni

shakllantirish va baholash usullarining qanday ekanligini tushunib etish jarayoni jadal bormoqda, ushbu tushunchalarni aniqlashtirish bo'yicha qizg'in munozaralar davom etmoqda. Shu sababli bugungi kunda ushbu tushunchalarning juda ko'plab ta'riflari va talqinlari mavjud.

Bu ma'noda kompetentlik insonning, shaxsning, kasb egasining tavsifi hisoblanadi, ayni paytda, u shaxs individual shaxsiy imkoniyatlarining yig'indisi, uning o'z nazariy bilimlari va amaliy tajribalarini mehnat faoliyatida unumli foydalana olish qobiliyati hisoblanadi.

Kompetentlikka yo'naltirilgan yondashuv asosidagi ta'limda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ta'lim beruvchining vazifalarini o'zgartirishni taqozo etadi – nafaqat bilim berish, balki ta'lim oluvchilarga ularni mustaqil izlash, tahlil qilish, taqqoslash va o'zgartirish, hayotiy muhim vazifalarni hal etishda qo'llash, barcha hayot yo'li davomida bilimlarni tezkor yangilash va to'ldirishni o'rgatish kerak bo'ladi. Kompetentlik yondashuvi asosida pedagogik kadrlar tayyorlashda o'quv mashg'ulotlarini olib borish, o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy sharti – ta'lim insonning o'z shaxsiy manfaatlari uchun ham, jamiyat, davlat manfaatlari uchun ham olib boradigan faoliyatining asosiy sohalarida muvaffaqiyatini ta'minlovchi bilimlar va amaliy faoliyat usullarini kompleks ravishda o'zlashtirishiga qaratilgan[69].

Kompetentlikka yo'naltirilgan yondashuv asosidagi ta'lim insonning o'z shaxsiy manfaatlari uchun ham, jamiyat, davlat manfaatlari uchun ham olib boradigan faoliyatining asosiy sohalarida muvaffaqiyatini ta'minlovchi bilimlar va amaliy faoliyat usullarini kompleks ravishda o'zlashtirishiga qaratilgan. Ko'pgina ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda "pedagogik kompetentlik" tushunchasidan foydalaniladi, bunda ushbu tushuncha ikki xil ma'noda ishlatiladi:

Birinchi holda, kasbiy kompetentlikning bir ko'rinishi bo'lib, aniq bir yo'nalishning kasb vakillariga tegishli ta'lim sohasi (o'qituvchilar, pedagoglar, ta'lim muassasalari hamda ta'limni boshqarish organlari rahbarlari va boshqalar). Bu holda mazkur atamaning sinonimlari sifatida "pedagogning kasbiy kompetentligi", "kasbiy-pedagogik kompetentlik", "kasbga oid pedagogik kompetentlik" kabi tushunchalarni ko'rsatish mumkin.

Ikkinchi holda, pedagogik kompetentlik–faoliyati jihatidan pedagogikaga aloqasi bo'lmagan, lekin ish faoliyati pedagogik yo'naltirilganligi mavjud bo'lgan soha vakillari kasbiy kompetentligining tarkibiy qismi sifatida tushuniladi.

Kasbiy faoliyati samarador bo'lishi uchun egallanishi muhim bo'lgan kompetensiyalar sohasining turli-tumanligini anglash, aynan ushbu kompetensiyalar doirasini aniqlash, shuningdek, ular orasidan o'z xarakteriga ko'ra eng universal bo'lgan tayanch hamda umumkasbiy va maxsus kompetensiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin. Har bir zamonaviy mutaxassis uchun muhim bo'lgan tayanch kompetensiyalarni egallash zaruriyati pedagogning kasbiy kompetentligi tuzilmasiga individning turlicha qarashlarini ifodalash imkonini beruvchi tarkibiy qismni kiritishni taqozo etadi. Shuning uchun tayanch kompetentlik tuzilmasida quyidagi nisbatan mustaqil hisoblanadigan tarkibiy qismlarni (komponentlarni) ajratib ko'rsatish mumkin: ijtimoiy-individual kompetentlik, inson, individ, shaxs sifatida

o'zini his qila olishi, jamiyatning faol a'zosi sifatida his qilish imkonini beruvchi; kommunikativ kompetentlik, tanish va notanish vaziyatlarda insonlar bilan o'zaro muvaffaqiyatli muloqot (yozma, axborotli va og'zaki) olib borish imkonini beruvchi; axborot kompetentligi, keng axborot maydonida erkin foydalana olish va hokazo.

Pedagogika sohasida kompetentlikning muhim bo'limi hisoblanadigan tizimli kompetentlikni ijtimoiy, shaxsiy va kasbiy jihatlari ham insonning mustaqil ta'lim orqali bilim olishiga, refleksiyaga, ijodiy fikrlashga, har tomonlama o'z-o'zini idrok qila olishiga, o'z ustida doimiy ishlashiga, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlagan holda bilimlarini oshirib borishga loyiqligini ta'minlaydi. Tizimli kompetentlik kompetentlik tuzilmasida tizimni hosil qiluvchi asosiy element hisoblanadi, chunki u kompetentlikning boshqa barcha tuzilma komponentlarini shakllantirishning zaruriy sharti va asosiy omili hisoblanadi. Informatika o'qituvchisi kasbiy kompetentligining mazmuniy tuzilmasi ta'lim tizimidagi har qanday tub o'zgarishlarning boshlanishida belgilanadigan mutaxassis modeli uchun asos qilib olingan. Kasbiy kompetentlik mazmuni tuzilmasining har bir komponentiga alohida, kompetentlik sifatida qarash mumkin, negaki, ularning har biri murakkab, uch darajali tuzilishga ega bo'lgan komponentli tuzilmadan iborat.

Kompetentlikni baholashda inson tomonidan shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlarga erishish uchun sarflangan, ko'p vaqt davomida, turli tuman ijtimoiy, pedagogik, psixologik, texnologik va boshqa vaziyatlarda namoyon qilinadigan kompetentlikni aniqlash kerak bo'ladi. Bunda o'qituvchi tomonidan muayyan vaziyatni rivojlanishiga, qadriyatlarining shakllanishiga va yangi kompetentlarni egallashiga bevosita ta'sir etadi. Shaxsning o'ziga xos, integrativ sifati hisoblanadigan kompetentlikning tizimini hosil qiluvchi markaziy komponenti–bilish vositalariga oid kompetentlik bo'lib, u ikkita tarkibiy qismdan iborat: moddiy-motivasion va refleksiv-kreativlik. Egallangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatlarining shakllanishi tizimli kompetentlikni ta'minlaydi.

Ta'lim berish jarayonida talabalarni mashg'ulotlarga to'la jalb qilishda innovatsion xarakterga ega vositalardan foydalanish samara bermoqda. Ularning texnologik-didaktik imkoniyati talabalarning o'quv-bilish faolligini oshirish bilan birga, o'qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bugungi kunda o'qitish jarayonida kompyuter, skaner, videoko'z, videokamera, proektor, elektron doska, modem, telefon, internet, multimedia, mikrofon, karnay, vebkamera, CD-ROM kabi texnik vositalar, ma'lumotlar ombori va vebinar texnologiyalar kabi innovatsion xarakterga ega vositalar samarali qo'llanilmoqda. Ushbu texnologiyalarni o'zlashtirish orqali pedagoglar interfaol o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Talabalar uchun esa bu texnologiyalar vaqtni va boshqa resurslarni tejash imkoniyatini yaratadi. Chunki ushbu interfaol ta'lim jarayoni bilan qulay vaqt va qulay joyda tanishish imkoniyati mavjud. Bu esa pedagoglardan vebinar texnologiyalar asosidagi mashg'ulotlarni samarali tashkil etish uchun muayyan ko'nikmalarga ega bo'lish, bir qator shart va qoidalarga rioya etish talab qilinadi. Bu turdagi texnologiyalar asosida Vebinar mashg'ulotlarni olib borish uchun pedagoglarning oldiga veb-kamera o'rnatilib, u tomonidan tashkil etilgan mashg'ulot tarmoq orqali namoyish etiladi. Bu mashg'ulotni Yer sharining istalgan nuqtasida

ko‘rish, Internet tarmog‘iga ulangan kompyuter vositasida talabalar va pedagog o‘rtasida muloqotni tashkil etish mumkin. Mashg‘ulot ishtirokchilari o‘rtasidagi aloqa Veb-ilova xizmati orqali ta‘minlanadi. Odatda vebinar mashg‘ulotlar talabalar tomoni o‘quv moduli, uning muayyan bo‘limi, mavzulari mustaqil o‘rganilgandan keyin tashkil etiladi. Bu mashg‘ulotlarning an‘anaviy darslardan farqi – ularda har bir talaba, tinglovchi o‘quv materialini muhokama qilish va muayyan ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish masalalarini muhokama etisha faol ishtirok etishi mumkin. Mashg‘ulotning muvaffaqiyati pedagogning mahoratiga, muloqot jarayonining to‘g‘ri tashkillashtirishiga, auditoriyaning faolligiga va mashg‘ulot shaklining maqsadli tanlanganligiga bog‘liq.

Bu turdagi mashg‘ulotning dasturiy ta‘minoti mutaxassislar tomonidan ta‘minlanadi. Ayni vaqtda vebinar mashg‘ulotlar turli tijorat (Webinar.ru, Comdi, Mirapolis Virtual Room va b.) hamma erkin tarqatuvchi (OpenMeetings, OnWebinar va h.k.) serverlar yordamida tashkil etiladi.

Shu o‘rinda talabaning shaxsiy elektron xujjatlar jamlangan portfoliosini ham shakllantirish mumkin. Zamonaviy sharoitda nafaqat ta‘lim jarayonini tashkil etishda, shu bilan birga talabalarning o‘quv faoliyatlarini nazorat qilishda o‘quv portfoliosi ham innovation xarakterga ega. So‘nggi yillarda zamonaviy ta‘limda pedagogning kasbiy, talabaning esa o‘quv faoliyatini mazmunan takomillashtirish, shuningdek, har ikki faoliyat turining sifatini ma‘lum ko‘rsatkichlar asosida etarlicha, xolis baholashga nisbatan ehtiyoj kuchaymoqda. Portfolio pedagog hamda talabaning faoliyatiga bilvosita baho berish, qay darajada sifatli va samarali ekanligini tahlil qilish imkoniyatini ta‘minlashga xizmat qiladi. Qolaversa, portfoliolar pedagog va talabalarga ularning shaxsi, faoliyati bilan turli ekspertiza (tekshiruv)lar jarayonida komissiya a‘zolarini bilvosita tanishish imkoniyatini beradi.

Portfolioda talabaning joriy, oraliq va mustaqil ishlari bo‘yicha bajargan topshiriqlari, ularga qo‘yilgan o‘zlashtirish ballari ham jamlanib boriladi. Portfolio yurgizish talabaning semestr (kurs) va o‘quv muddati davomidagi o‘zlashtirishi, mustaqil ish topshiriqlarini muntazam ravishda bajarib borganligi to‘g‘risidagi daliliy hujjat hisoblanadi. Portfolio pedagogik jarayonda pedagogga talabaning erishayotgan yutuqlari yuzasidan monitoringni olib borish imkoniyatini yaratadi va o‘zlashtirish ballarining haqqoniy, ishonchli bo‘lishini ta‘minlaydi. Talabaga esa bilim darajasining qay darajadiligini, uning dinamik o‘shishini kuzatib borish, kasbiy jihatdan shaxsan rivojlanish darajasini mustakil baholash uchun zarur sharoitni yaratadi. Talabalarning portfoliolari quyidagi tuzilishga ega bo‘ladi: 1) titul; 2) mundarija; 3) portfolioning maqsadi; 4) portfolioning bo‘limlari.

Turiga ko‘ra portfoliolar bir necha bo‘limlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Masalan, “Ishlar portfoliosi” quyidagi to‘rtta bo‘limdan mening qiyofam, portfolio-kollektor, ish materiallari, shaxsiy yutuqlar bo‘limidan tarkib topadi. Talabalarning o‘quv portfoliosini yaratishga qaratilgan amaliy harakat bir necha bosqichda tashkil etiladi.

Shunday qilib, bugungi tezkor davr talabalarni ham qisqa muddatda va asosli ma‘lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda. Zamonaviy

sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi. Bu turdagi ta'lim talabalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Bo'lajak informatika o'qituvchilarining fanga oid bilimlari chuqur egallash, kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishning mantiqqa asoslangan, fikrlash asosida AKT vositalaridan foyalanish kabi maqbul metodikalarini ta'limning bir butunlik, olmnig yagona manzarasi, berilayotgan manbalarning ilmiyligi, berilgan ma'lumotlarning yaxlitligi va ushbu ma'lumotlarni ekazishdagi uzluksizlik, bilimlar davriyligi, bilim egallash darajalari, maqsadning aniq va yagonaligi, o'zlashtirishning tezkorligi kabi tamoyillari asosida tanlanishi lozim. Ushbu tamoyillar asosida bo'lajak o'qituvchilarning tayanch, fanga oid, xususan, kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishda darsni loyihalash, metodlarga innovasion yondashuv, fanlar hamda ilm-fan integratsiyasi, o'zini-o'zi baholay oladigan, ta'lim olishdagi munosabatlarni, mavjud salbi va ijobiy jihatlarini korreksiyalash, bilim va ilm olish sharoitidagi shaxsning portreti, shaxs portfoliosini shakllantirishga asoslangan modulli texnologiyalar asosida kognitiv kompetensiyalarini shakllantiradi. Bunda ta'limning ijodiy bosqichlarni baholashga imkon beruvchi keyslari, samarali ishbop o'yinlar, turli ko'rinishdagi mahorat darslari talabalarning kognitiv kompetensiyalarining dinamik tarzda o'sishini ta'minlash metodikalar tanlanishini taqozo etadi.

Xususan, talabalarning tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalari shakllantirishda ularning ta'lim troektoriyasi, faoliyat tuzilmasining mustaqil ta'lim olishga yo'naltirilgan refleksiya, kreativ fikrlashga har tomonlama o'z-o'zini anglash va idrok qila olishiga, o'z ustida doimiy ishlash, o'zini nazorat qilishga, nazariy bilimlar va amaliyot mashg'ulotlar uyg'unligi ta'minlovchi elementlarlar ajratib ko'rsatilgan. Tadqiqot mavzusining muammosiga bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy ishlar tahlili natijasiga ko'ra, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentlikni tashkil etadigan "o'qituvchi tayyorgarligi", "ilmiy uslubiy ma'lumotga egaligi", "umumiy kasbiy madaniyati" kabi tushunchalar ularning kasbiy kompetensiyalarini tabaqalashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 октябрдаги "Ахборот технологиялари соҳасида таълим тизимини янада такомиллаштириш, илмий-тадқиқотларни ривожлантириш ва уларни ИТ-индустрия билан интеграция қилиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-4851-сон қарори.

2. Байденко В.И. Компетенции в профессиональном образовании (к освоению компетентностного подхода) // Высшее образование в России. 2004. №11.

3. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълимда замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг илмий-назарий асослари. Монография. – Тошкент: Фан, 2007.– 160 бет.